


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 193 397,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 10,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 116,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 19,0 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

| | Mlrd. so'm | | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|------------------|------------------|---|
| | 2023- yil | 2024- yil | |
| I. YAHM, jami | 151 185,0 | 193 397,6 | 110,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 139 229,5 | 178 280,0 | 110,3 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 11 955,5 | 15 117,6 | 106,4 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 139 229,5 | 178 280,0 | 110,3 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 54 573,7 | 68 640,3 | 109,4 |
| sanoat | 39 259,9 | 50 961,2 | 108,5 |
| qurilish | 15 313,8 | 17 679,1 | 111,6 |
| xizmatlar | 84 655,8 | 109 639,7 | 110,9 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 25 662,8 | 30 266,0 | 106,9 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 19 993,6 | 28 710,8 | 123,5 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 38 999,4 | 50 662,9 | 107,1 |



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 63 035,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

| | 2023- yil | 2024- yil |
|---|--------------|--------------|
| I. YAHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 92,1 | 92,2 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 7,9 | 7,8 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 39,2 | 38,5 |
| sanoat | 28,2 | 28,6 |
| qurilish | 11,0 | 9,9 |
| xizmatlar | 60,8 | 61,5 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 18,4 | 17,0 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 14,4 | 16,1 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 28,0 | 28,4 |



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 92,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 7,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog‘ining YAHM tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 28,6 % ni, qurilish 9,9 % ni va xizmatlar sohasi 61,5 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 2,2 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 1,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 6,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 7,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,5 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 1,0 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 108,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,6 %), qurilishda – 111,6 % (9,9 %), xizmatlar sohasida – 110,9 % ni (61,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 106,9 % (17,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 123,5 % (16,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,1 % dan (28,4 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



10,4 %

YAHM

10,0 %



5,6 %

Sanoat

8,5 %



4,0 %

Qurilish

11,6 %



14,1 %


Xizmatlar

10,9 %



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 116,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 119,6 % va xizmatlarda – 116,8 % qayd etildi.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 90 341,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 71 291,2 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 50,7 % ni 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 51,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

